

Jo'ra Musayev (1928-2014)



Jo'ra Musayev (1928-2014)



Musayev Jo'ra Azimboyevich (1928.5.12, Yangiyo'l shahri – 2014.27.10) — genetik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1984), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1980), biologiya fanlari doktori (1973), professor (1975).

O'rta Osiyo universitetini tugatgan (1948). ToshDU darvinizm va genetik kafedrasida assistenti (1952-56), dotsenti (1956-1974), tayyorlov fakulteti umumiy nazariy fanlar kafedrasida mudiri (1961-66), g'o'za xususiy genetikasi — problema laboratoriyasi mudiri (1974 yildan), darvinizm va genetik kafedrasida mudiri (1981—84), O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti direktori (1982—84), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi a'zosi (1984—88), Prezidiumning bosh ilmiy kotibi (1985—88), O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti g'o'za xususiy genetikasi laboratoriya mudiri (1989—92), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika instituti tashkilotchilaridan. Shu institut o'simliklar genetikasi bo'limi boshlig'i (1992—2000), ilmiy maslahatchisi (2000 yildan). O'zMU biologiya-tuproqshunoslik fakulteti genetik va tsito-embriologiya kafedrasida mudiri (2000 yildan).

Jo'ra Musayev g'o'zaning irsiy toza genetik kolleksiyasini yaratgan. Birinchi bo'lib allotetraploid g'o'zalar belgi va xususiyatlarini, genlarning kombinativ ta'sirida irsiylanishi to'g'risidagi genetik nazariyaga asos solgan. Jo'ra Musayev va shogirdlari g'o'zaning monosomik, translokatsion va tsitologik markerlangan liniyalari kolleksiyasini yaratishgan. Jo'ra Musayev g'o'zaning «Gulbahor», «Navbahor», «Armug'on» navlari

mualliflaridan biri.

«El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan (1998) .

2023-09-12 17:49:42